KOMILOVA Komila Anvar qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Tasviriy san’at mutaxassisligi magistranti,
Shayxontohur tuman ixtisoslashtirilgan maktabi, San’at fani o‘qituvchisi,
komilovakomila305@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-8088-664X

O‘ZBEK VA FORS MIFOLOGIYASIDA SEMURG’ - ADOLATPARVAR, DONO VA SEHRLI QUSH TIMSOLI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): KOMILOVA K. O‘zbek va Fors mifologiyasida semurg’ - adolatparvar, dono va sehrli qush timsoli // Madaniyat ta’limi – Культурное образование – Cultural Education. № 2 (2026) B. 77.

ANNOTATSIYA

Mifologiya insoniyat ma’naviy merosining ajralmas qismi bo‘lib, xalqlarning dunyoqarashi, e’tiqodi va badiiy tafakkurini o‘zida mujassam etadi. Ushbu maqolada o‘zbek va fors mifologiyasidagi ilohiy Semurg’ qushi obrazining kelib chiqishi, ramziy ma’nosi, tasviriy san’atdagi in’ikosi hamda turli madaniyatlardagi o‘xshash timsollari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Semurg’ obrazining adolatparvarlik, donolik va sehrli kuch timsoli sifatida o‘zbek folklorida va fors adabiyotida qanday shakllanganligini aniqlash maqsad qilingan. Maqolada tarixiy-qiyosiy, tahliliy va madaniyatshunoslik metodlaridan foydalanilgan. Natijada Semurg’ obrazi yagona mifologik ildizga ega bo‘lsada, har bir xalq madaniyatida o‘ziga xos talqin kasb etganligi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: *mifologiya, mif, ertak, afsona, asotir, obraz, qahramon, Semurg’, Avesto, fors mifologiyasi, o‘zbek folklori.*

КОМИЛОВА Комила Анвар қизи
Магистрант специальность «Изобразительное искусство»,
Узбекский национальный педагогический университет имени Низами,
Специализированная школа Шайхантахурского района, учитель предмета «Искусство» (ИЗО),
komilovakomila305@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-8088-664X

СИМУРГ В УЗБЕКСКОЙ И ПЕРСИДСКОЙ МИФОЛОГИИ - СИМВОЛ СПРАВЕДЛИВОЙ, МУДРОЙ И ВОЛШЕБНОЙ ПТИЦЫ

АННОТАЦИЯ

Мифология является неотъемлемой частью духовного наследия человечества, воплощая мировоззрение, верования и художественное мышление народов. В данной статье проводится сравнительный анализ

происхождения, символического значения и художественного отражения образа divine птицы Симург в узбекской и персидской мифологии, а также рассматриваются аналогичные образы в других культурах. В результате исследования доказано, что образ Симурга, имея единые мифологические корни, приобрёл самобытную интерпретацию в культуре каждого народа.

Ключевые слова: *мифология, миф, сказка, легенда, образ, герой, Авесто, Симург, персидская мифология, узбекский фольклор.*

KOMILOVA Komila Anvar qizi
Master's Student, Fine Arts,
Uzbekistan National Pedagogical University named after Nizami,
Specialized School of Shaykhantakhur District, Art Subject Teacher,
komilovakomila305@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-8088-664X

SIMURGH IN UZBEK AND PERSIAN MYTHOLOGY - A SYMBOL OF A JUST, WISE AND MAGICAL BIRD

ANNOTATION

Mythology is an integral part of humanity's spiritual heritage, embodying the worldview, beliefs and artistic thinking of peoples. This article presents a comparative analysis of the origin, symbolic meaning and artistic reflection of the divine Simurgh bird image in Uzbek and Persian mythology, as well as similar images in other cultures. The study proves that although the Simurgh image has common mythological roots, it has acquired a unique interpretation in each nation's culture.

Keywords: *mythology, myth, fairy tale, legend, image, hero, Avesta, Simurgh, Persian mythology, Uzbek folklore.*

"O'zbek va Fors mifologiyasida Semurg' - adolatparvar, dono va sehrli qush timsoli" mavzusidagi ushbu tadqiqot nafaqat ilmiy-madaniy ahamiyat kasb etadi, balki O'zbekiston Respublikasining milliy madaniyat va san'atni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati bilan uyg'unlikda ham alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-iyuldagi PQ-212-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida milliy tasviriy va amaliy san'atni jahon miqyosida ommalashtirishga, iste'dodli yoshlarni ijodiy loyihalarga keng jalb etishga, shuningdek, akademik badiiy ta'limning izchilligini ta'minlashga oid strategik vazifalar belgilangan. Ushbu hujjatda alohida ta'kidlanishicha, "Buyuk allomalar" va "Zamon qahramonlari" turkumidagi ijodiy asarlarni davlat buyurtmasi asosida yaratish tizimi yo'lga qo'yilishi nazarda tutilmoqda. Semurg' timsoli - xalqimizning buyuk ilmiy va adabiy merosida chuqur ildiz otgan qadimiy ramz sifatida, aynan ana shunday ijodiy asarlarning yaratilishiga ilhom manbayi bo'la oladi [13].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 21-apreldagi PQ-150-son “Madaniyat va san’at sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag’batlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarori esa madaniyat markazlari faoliyatini nomoddiy madaniy merosni targ’ib qilish, milliy qadriyatlarni asrash va sun’iy intellekt platformalarida o‘zbek milliy madaniyati to’g’risida ma’lumotlar bazasini yaratish yo‘lida yangilash vazifasini belgilaydi. Semurg’ obrazi o‘zbek xalqining nomoddiy madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib, bunday raqamli arxiv va milliy madaniyat ma’lumotlar bazasiga kiritilishi nihoyatda muhim [14].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-iyundagi PF-103-son “Madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar to‘g’risida”gi Farmoni esa eng keng qamrovli hujjat bo‘lib, unda teatr, raqs, opera, tasviriy va amaliy san’at, adabiyot yo‘nalishlarida ijodiy birlashmalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va har yili kamida 50 ta sara asar yaratilishini ta’minlash maqsad qilib qo‘yilgan. Bundan tashqari, milliy adabiyotning eng yaxshi asarlari xorijiy tillarga tarjima qilinishi va xalqaro miqyosda taqdim etilishi ko‘zda tutilgan. Fors-tojik va o‘zbek mifologiyasining umumiy ramzi bo‘lmish Semurg’ qushiga bag’ishlangan tadqiqotlar ham xalqaro ilmiy-madaniy hamkorlikni chuqurlashtirishga, o‘zbek adabiy va badiiy merosini dunyo jamoatchiligi bilan ulashishga real hissa qo‘sha oladi [15].


Shunday qilib, mazkur ilmiy maqola davlat madaniyat siyosatining asosiy ustuvorliklari - milliy o‘zlikni anglash, nomoddiy madaniy merosni asrash, ijodiy faollikni rag’batlantirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bilan to‘liq hamohang keladi. Xalq og‘zaki ijodiga mansub mifologiya janri azaldan insoniyat tarixida muhim o‘rin tutib kelgan. “Mif” so‘zi yunoncha “mythos” so‘zidan olingan bo‘lib, afsona, rivoyat va asotir kabi ma’nolarni bildiradi. Qadimgi odamlar o‘z fikrlash doirasida koinot, odam, tabiat va uning jonzotlari, tabiat hodisalarining mohiyatini anglashga harakat qilgan hamda ushbu voqelikni miflar orqali izohlashga urinishgan. Mifologiya atamasi esa ma’lum bir diniy an’analarga mansub afsonalarni o‘z ichiga oladi. Mifologiya janri qadimgi odamlarning hayotini o‘rganishga va yaqindan nazar solishga yordam beradi. Har bir mif o‘z davrida yashagan insonlar qalbining tub-tubida yashiringan istaklarini namoyon etadi. Ammo millatiga, diniga va tarixiga ko‘ra miflar farqlanishi mumkin. Dunyo xalqlari ichida qadimgi yunon miflari eng mashhur miflar sanaladi, chunki ular juda ko‘p va syujet jihatdan xilma-xil hamda qadimda ham, hozirgi kunlarda ham ko‘plab shoir-u yozuvchilar, dramaturglar va rassomlarni buyuk asarlar yaratish uchun ilhomlantirgan. O‘zbek mifologiyasining eng mashhur mifologik obrazlaridan biri Semurg’dir. Bu ulug’ qush o‘zbek folklorida ham keng tarqalgan miforitonimlardan biri bo‘lib, homiy kuch sifatida, sehrli qudratga ega ulkan qush qiyofasida gavdalantiriladi. Semurg’ qush obrazi abadiy

hayotni ifoda etadi va hayot daraxti kabi mifologik qarashlar bilan bog'liq bo'lib kelgan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi o'zbek va fors mifologiyasidagi Semurg' obrazini qiyosiy tahlil qilish, uning turli san'at asarlarida va xalq og'zaki ijodida qanday talqin etilganligini aniqlash hamda bu obrazning zamonaviy san'atdagi aksini o'rganishdan iborat.

1. Semurg' obrazining mifologik kelib chiqishi. Semurg' (Semurg', Anqo, Phoenix) - Eron mifologiyasida afsonaviy mavjudot, barcha qushlarning shohi hisoblanadi. Bu mavjudot O'rta Osiyo va Volga bo'yidagi turkiy tilli xalqlarning mifologiyasida ham ma'lum. Sharq va G'arb mifologiyalarini birlashtirgan eng ramziy, eng ilhomli qush obrazlaridan biridir. U rassomlikda hayot, qayta tug'ilish va ijodiy ruhning abadiylik timsoli sifatida ishlatiladi. Boshqa madaniyatlarda bu obraz Anka, Feniks, Humay, Garuda nomlari bilan tanilgan. Semurg' haqidagi ilk ma'lumotlar Eron mifologiyasida uchraydi. Bu ulug' qush qadimgi zardushtiylik dinining simvolik qushi hisoblanadi. Semurg' - mangu hayot, bu dunyoning u dunyodan ozodligi, ilohiylik, yovuzlik yoki o'lim ustidan g'alabasi timsoli. Semurg' misolida ibtidoiy odamlarning insonlarning butunlay o'lmasligiga, aksincha, inson ruhi bir tanadan ikkinchi tanaga ko'chib yurishiga va turli o'zgarishlarga ishonganligini ifodalaydi. Qadimgi "Avesto" davrida Semurg' o'lganlarning ruhini keyingi hayotga eltuvchi yo'l ko'rsatuvchi vazifasini bajargan [16]. Bu dono va qudratli qushning asosiy vazifasi o'lgan ruhlarni u dunyo va bu dunyo o'rtasida hamrohlik qilgan hamda ruhlar o'z manziliga yetib olishiga yordam bergan.

2. O'zbek mifologiyasida Semurg'. O'zbek mifologiyasida Semurg' barcha ilohiy personajlar kabi donolik xislatiga egadir. Kenja Botir Semurg' bolalarining hayotini saqlab qolganligi uchun, ilohiy qush uning niyatini amalga oshirishga yordam berdi. Qolaversa, yo'l oxirida go'shti tugagan Kenja botirning, hech o'ylamay o'z go'shtidan berganligi, Semurg' esa uni qabul qilmaganligi, qushning saxovatpesha ekanligidan dalolat beradi. O'zbek folklorida Semurg' "Kenja Botir" va "Semurg'" ertaklarida muhim yetakchi rollarda gavdalangan. Har ikki ertakda ertak qahramonini yer ostidan yer yuziga olib chiqadi va ezgulik yo'lida ko'maklashadi. Ertakda kuzatiladigan asosiy ezgu kuch - Semurg' timsolida gavdalantiriladi.


3. Fors mifologiyasi va adabiyotida Semurg'. Fors adabiyotida Semurg' obrazi eng yorqin Fariduddin Attorning "Mantiq-ut-Tayr" ("Qushlar majlisi") dostonida o'z aksini topgan. XV-XVI asr fors ustalari tomonidan ishlangan miniatyuralarda bu dostonning sahnalari tasvirlangan. Asarda qushlar o'z podshohini - Semurg'ni izlab safarga chiqadi. Oxirida ular Semurg'ni o'zlarining aksida topadilar. Bu syujet ruhiy komillikka yo'l, inson o'z "Men"ini tanishi ma'nosini ifodalaydi




Fariduddin Attorning "Mantiq-ut-Tayr" va "Shoxnoma" asarlari

Shohnoma (Firdavsiy dostoni) illyustratsiyasida esa "Semurg' va Zol" sahnasi tasvirlangan. Rassom Kamoliddin Behzod (XV asr) tomonidan rang-barang fors miniatyurasi uslubida, oltin naqshlar va nafis chiziqlar bilan ishlangan bu asar Semurg'ning chaqaloq Zolni tog'da topib, uni o'z qanotlari ostida tarbiyalash sahnasini ifodalaydi. Ramziy ma'nosi: donolik, ona mehr, ilohiy himoya [19].

4. Semurg' tasvirining san'atdagi in'ikosi. Semurg' tasviri turli davr va madaniyatlardagi san'at asarlarida o'z aksini topgan. Afrosiyob freskalaridagi (648-651 yillar) libosida Semurg' tasviri tushirilgan elchi tasviri saqlanib qolgan bo'lib, bu Semurg' obrazining O'rta Osiyo tasviriy san'atida qanchalik qadimiy ekanligini ko'rsatadi. Sosoniylar sulolasining ramzi sifatida oltin bilan qoplangan kumush laganda Semurg' tasviri (eramizning 7-8-asrlari) bugungi kunda bu obrazning moddiy madaniyat yodgorliklarida qanchalik keng tarqalganligini isbotlaydi [20]. Semurg' tasviri bilan brokar matolardan tikilgan kiyimlar ham o'rta asrlarda keng qo'llanilgan bo'lib, bu qushning nafaqat mifologik, balki kundalik hayotdagi ramziy ahamiyatini ko'rsatadi.





Semurg' tasviri bilan brokar
Afrasiyob Freskalaridagi libosida Semurg' tasviri tushirilgan elchi, 648-651 yy.

Mifologiya atamasi esa ma'lum bir diniy an'analarga mansub afsonalarni o'z ichiga oladi. Ushbu miflar syujet jihatdan real hayotga yaqinlashishi mumkin, ammo undagi asosiy hodisalar yoki personajlar sehrli va tabiat qonunlariga bo'ysunmas qobiliyatlarga ega bo'ladi. Erix Fromm "Turli odamlar turli xil miflarni yaratadilar, xuddi shunday turli odamlar turli xil orzularga ega. Ammo bu farqlarga qaramay, barcha miflar va tushlar umumiy narsaga ega: ularning barchasi bir xil tilda "yozilgan"- timsollar tilida", deb ta'kidlaydi.



Semurg' – sosoniylarning sulolaviy ramzi, Oltin bilan qoplangan kumush laganda Semurg' (eramizning 7-8-asrlari)

	1) **Bosh qismi** - dono qush va sher uyg‘unligi, bosh ko‘pincha qush va sher shaklida beriladi. **Ramziy ma’nosi:** Hikmat, bilim va hushyorlik (qushning nigohi). Kuch, himoya va adolat (sherning qudrati). Fors mifologiyasida Semurg‘ dunyodagi barcha sirlarni biluvchi, dono va mehribon mavjudot hisoblanadi.
	2) **Qanotlar -** osmon va ruhiy yuksalish ramzi. Katta, yoyilgan qanotlar uning ilohiy kuchga egaligini ko‘rsatadi. **Ramziy ma’nosi:** Erkinlik, osmon bilan bog‘lanish, ruhning poklanishi. Semurg‘ odamlarga yo‘l ko‘rsatuvchi, ularga najot beruvchi mavjudot sifatida tasvirlanadi.
	3) **Tana va o‘ymador naqshlar -** abadiylik va olam uyg‘unligi Tana odatda dumaloq, mustahkam shaklda, ustiga mayda naqshlar berilgan. **Ramziy ma’nosi:** Tabiat tartibi, yaratilish, kosmik uyg‘unlik. Dumaloq shakllar - olamning abadiyligini bildiradi.
	4) **Dum va yon o‘ralgan shakllar** - hayot aylanishi. Rasmdagi dum qismi va yonidagi aylana naqshlar hayvonning boshqa qismlari bilan tutashgan. **Ramziy ma’nosi:** Hayot aylanishi, qayta tug‘ilish, taqdir g‘ildiragi. Fors mifologiyasida Semurg‘ ko‘pincha o‘limdan keyingi yangilanish ramzi sifatida tilga olinadi.
	5) **Tumshuqdan chiqayotgan til yoki tasviriy element** - so‘z, hikmat. Ba’zi tasvirlarda u og‘zidan hikmat nuri, so‘zi chiqayotgan kabi ko‘rsatiladi. **Ramziy ma’nosi:** Haqiqatni aytuvchi, yo‘l ko‘rsatuvchi so‘z.
	6) **Ko‘p qavatli ramziy chegara** - himoya devori. Laganning chetidagi qilqichli, o‘simliksimon naqshlar chegarani yasaydi. **Ramziy ma’nosi:** Yovuzlikdan himoya, sirlarni qo‘riqlash. Qadimiy laganlarda bu naqshlar tumorlardagi himoya belgilari hisoblanadi.

Hind va Turkiy san’atida ham Semurg’ obrazi keng tarqalgan. “Anqa qushi” tasviri Mug’ul miniatyuralarida (XVII asr) oltin va qizil patli, osmonni yorituvchi ulug’ qush sifatida tasvirlangan. Turkiya san’atida esa (O‘rta asr devor bezaklari, Iznik keramika) Semurg’ olovdan chiqib, osmon sari ko‘tarilgan holda tasvirlangan bo‘lib, o‘lim va qayta tug‘ilish, o‘t orqali poklanish ramzini ifodalaydi.

G’arb san’atida Semurg’ “Phoenix” sifatida tanilgan. Peter Paul Rubensning “The Phoenix” (Feniks) asari (1610-yil) qizil olov orasidan tirilib chiqayotgan qushni

tasvirlagan bo‘lib, abadiy hayot, qayta tug’ilish, ruhiy yuksalish ma’nosini beradi. Evelyn De Morganning “Phoenix Rising” asari (1911-yil, Angliya, Pre-Rafaelitlar maktabi) esa ayolni ilohiy kuch sifatida Feniks bilan birlashtirgan holda ayol ruhi, ijodiy uyg’onish va nurli yangilanish g’oyasini ifodalaydi. Zamonaviy san’atda ham Semurg’ obrazi o‘z mavqeini saqlab qolmoqda. Eronlik rassom Alireza Darvishining “Semurg’ - The Eternal Bird” (XXI asr) digital painting uslubida ishlangan asari bu qushning nurdan yasalgan qush sifatida, fonida koinot va yulduzlar tasvirlangan holda berilgan bo‘lib, ruh, vaqt, abadiylik va ijodiy ong ramzini ifodalaydi. Bu asar zamonaviy san’atda Semurg’ obrazining yangi talqini bo‘lib, yorug’likdan tug’ilgan ilhom sifatida talqin etiladi.

5. Semurg’ obrazining turli xalqlar mifologiyasidagi o‘xshashliklari. Semurg’ qushga o‘xshash mifologik obrazlar dunyo xalqlarining ko‘pchiligida uchraydi. Boshqa xalqlarda Semurg’ qushlar qadimgi Misrda Benu, Islom dinida Anka, hinduiylik dinida Garuda, Xitoyda Fenxuan, Yaponiyada Xoo, Slavyanlarda esa Olov qush nomi bilan mashhurdir [17] [18]. Mifologiyadagi bunday ilohiy qushlarning asosiy vazifasi ularning yordamiga muhtoj jonzotlarga yordam berish va donolik bilan to‘g’ri yo‘l ko‘rsatish bo‘lib kelgan. Yunon mifologiyasida Gerakl, Odissey, Yason va Tesey kabi sevimli afsonaviy qahramonlar. Zevs, Poseydon, Apollon, Artemida, Afina, Afrodita va boshqa ulug’ ilohlar. Grifon, vasilisk, ajdar, kentavr, minotavrlar kabi sehrli mavjudotlar ham uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, Semurg’ mifologiya tarixida umrboqiylik va qayta jonlanish kabi qudratli kuchga ega ilohiy qushlar sifatida muhrlangan. Bundan tashqari, ular ilohiy kuchi va donolig’i bilan ham dovrug’ taratgan. Ushbu qushlar kichik yoshdagi bolalarni ham, katta yoshdagi insonlarni ham yaxshilik va ezgulik sari boshlaydi. Yaxshilikka yaxshilik ila javob qaytarishni, samimiy va ochiq ko‘ngil insonlar doim baxtli xotimaga erishishini eslatib o‘tadi. Bunday mifologik obrazlar nafaqat o‘zbek va yunon mifologiyasida, balki yer yuzidagi barcha xalqlarning og’zaki ijodida uchraydi. Semurg’ obrazi sharqda donolik, himoya, ruhiy yuksalish, g’arbda qayta tug’ilish va abadiyat, zamonaviy san’atda ijodiy ilhom va nur ramzi sifatida talqin etilmoqda. Bu obrazning turli davr va madaniyatlarda o‘z dolzarbligini saqlab qolishi, uning universal insoniy qadriyatlarni mujassam etganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Фромм Э. Душа человека: Перевод. - М.: Республика, 1992. - 430 с. - (мыслители XX века). (Fromm E. The Soul of Man: Translated edition. - Moscow: Respublika, 1992. - 430 p.)

2. Mamatqul Jo‘rayev, Darmonoy O‘rayeva. O‘zbek mifologiyasi. - T.: O‘qituvchi, 2019. - 558 bet. (Uzbek Mythology)

3. Андрущенко И.В. Симург: эволюция образа собаки и птицы в зороастрийском посмертном ритуале. - 2023. (Simurgh: the evolution of the dog and bird image in the Zoroastrian afterlife ritual)

4. Firdavsiy. Shohnoma. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2010. (Shahnameh)

5. Fariduddin Attor. Mantiq-ut-Tayr (Qushlar majlisi). - T.: Yangi asr avlodi, 2008. (The Conference of the Birds)

6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 bet. (High Spirituality is an Invincible Force)

7. Mirzayev T. O'zbek xalq ertaklari. - T.: Fan, 2005. (Uzbek Folk Tales)

8. Nishonov M. O'zbek mifologiyasi va folklori. - T.: O'zbekiston, 2015. (Uzbek Mythology and Folklore)

9. Avesto. Qadimgi sharq yodgorligi. - T.: Sharq, 2001. (Avesta. An Ancient Eastern Monument)

10. Bertels E.E. Navoi va Firdavsiy. - M.: Nauka, 1965. (Navoi and Ferdowsi)

11. Lurje P.B. Iranian mythological tradition. - Saint Petersburg, 2004.

12. Cohn N. Cosmos, Chaos and the World to Come. - Yale University Press, 1993.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-iyuldagi PQ-212-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. // URL: http://lex.uz/uz/docs/-7611797

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 21-apreldagi PQ-150-son "Madaniyat va san'at sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. // URL: http://lex.uz/uz/docs/-8156378

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-iyundagi PF-103-son "Madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. // URL: http://lex.uz/uz/docs/-8244005

16. Андрущенко И.В. Симург: эволюция образа собаки и птицы в зороастрийском посмертном ритуале. // Проблемы истории, философии, культуры. – 2023. (Andrushchenko I.V. Simurgh: the evolution of the dog and bird image in the Zoroastrian afterlife ritual) // URL: https://cyberleninka.ru/article/n/simurg-evolyutsiya-obraza-sobaki-i-ptitsy-v-zoroastriyskom-posmertnom-rituale

17. Сокаева Д.В., Шафаги М. Образ персидского Симурга в осетинском фольклоре. // CyberLeninka. – 2019. (Sokaeva D.V., Shafagi M. The image of the Persian Simurgh in Ossetian folklore) // URL: https://cyberleninka.ru/article/n/obraz-persidskogo-simurga-v-osetinskom-folklore

18. Сотникова С.В. Образ мифической птицы на гравировках раннего железного века: опыт сопоставления обско-угорской и иранской традиций. // Вестник Томского государственного университета. – 2016. – №406. (Sotnikova S.V. The image of the mythical bird on early Iron Age engravings: a comparison of the Ob-Ugric and Iranian traditions) // URL:

https://cyberleninka.ru/article/n/obraz-mificheskoy-ptitsy-na-gravirovkah-rannego-zheleznogo-veka-opyt-sopostavleniya-obsko-ugorskoy-i-iranskoy-traditsiy

19. Рейснер М.Л. Царь Йима – Джам – Джамшид: от мифологического героя к литературному образу. // Вестник Санкт-Петербургского университета. Востоковедение и африканистика. – 2020. – Т. 12, вып. 3. – С. 348–367. (Reisner M.L. King Yima – Jam – Jamshid: from mythological hero to literary image) // URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tsar-yima-dzham-dzhamshid-ot-mifologicheskogo-geroya-k-literaturnomu-obrazu

20. Дмитриев В.А. Рога барана и крылья сокола: к вопросу о религиозной символике в оформлении царских корон Сасанидов. // Проблемы истории, филологии, культуры. – 2012. – №1(35). – С. 144–152. (Dmitriev V.A. Ram's horns and falcon's wings: on the religious symbolism in the design of Sasanian royal crowns) // URL: https://cyberleninka.ru/article/n/roga-barana-i-krylya-sokola-k-voprosu-o-religioznoy-simvolike-v-oformlenii-tsarskih-koron-sasanidov